

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SULTONOV AKMALJON XASANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR VA OILA MUNOSABATLARIDA
IJTIMOIY-MADANIY AN‘ANALAR TRANSFORMATSIYASI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Sultonov Akmaljon Xasanovich

O'zbekistonda yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasi 3

Султанов Акмалжон Хасанович

Трансформация социально-культурных традиций в молодежных и семейных отношениях в Узбекистане..... 25

Sultonov Akmaljon Khasanovich

Transformation of socio-cultural traditions in youth and family relationships in Uzbekistan 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SULTONOV AKMALJON XASANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR VA OILA MUNOSABATLARIDA
IJTIMOIY-MADANIY AN‘ANALAR TRANSFORMATSIYASI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fal1419 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti veb-sahifasida (namdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismoilov Temurbek Islomovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Nasriddin Ataqulovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Aytbayev Mansurbek Yusupovich
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.



R.T.Jo‘rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, sotsiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniy almashinuv jarayonlari oila va yoshlar o'rtasidagi munosabatlarda chuqur o'zgarishlarga olib kelmoqda. An'anaviy qadriyatlar va zamonaviy turmush tarzi o'rtasidagi ziddiyatlar, yoshlar ongida shakllanayotgan yangi ijtimoiy qarashlar, oilaning ijtimoiy institut sifatida o'z funksiyalarini qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Oila va yoshlar munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analarning transformatsiya jarayonlari, jamiyatda sodir o'layotgan avlodlararo ziddiyatlar, nikoh va oila institutining barqarorligi ta'minlash zaruriyati, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati va shaxsiy hayotga bo'lgan munosabatining o'zgarishi oilaviy munosabatlarda yangidan – yangi paradigmalarni keltirib chiqarmoqda. Jamiyatning axborotlashish jarayoni sotsiumda ijtimoiy birlik va barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Dunyoda yoshlar va oila munosabatlarida yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, halqaro migratsiya omilining oilaviy munosabatlarga ta'siri, jamiyatda madaniy begonalashuv jarayonlarining yoshlar konsolidatsiyasiga ta'sirini aniqlashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oilaning ijtimoiy xususiyatining globallashuv jarayonlarida o'zgarib borishi, nikoh va oila institutining yangi shakllarining an'anaviy qadriyatlarga ta'siri, virtuallik va ijtimoiy tarmoqlarning oila va yoshlar madaniy qadriyatlarini rivojlantirishdagi o'ziga xosliklarini aniqlash, ommaviy madaniyatning oila qadriyatlariga kirib kelishi, avlodlararo munosabatlar, vorisiylik muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda oila institutining zaiflashuvi, yoshlarning nikohga nisbatan munosabatining o'zgarishi, gender rollarining qayta talqin qilinishi kabi holatlar, BMTning UNFPA va UNESCO kabi tashkilotlari tomonidan oilaning barqarorligini mustahkamlash, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning qadriyatlarga munosabatini shakllantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. World Values Survey (WVS) singari xalqaro tadqiqotlar orqali esa yoshlarning an'anaviy qadriyatlarga nisbatan munosabati, ularning zamonaviy hayot tarziga qanday moslashayotgani chuqur o'rganilmoqda. Raqamli jamiyat sharoitida oila a'zolari o'rtasidagi aloqalar, kommunikatsiya madaniyati va individualizmning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan oilaviy ziddiyatlar bo'yicha psixologik va sotsiologik izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda qator muhim izlanishlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi, "Oila" institutiga aloqador davlat maqsadli dasturlari, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida yoshlar va oilani qo'llab-quvvatlash, ularni zamonaviy hayot sharoitlariga mos holda tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti, Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi tahliliy markazlar, Ijtimoiy fikr markazi kabi muassasalar tomonidan yoshlar va oilaviy qadriyatlar, ularning transformatsiyasi, yoshlarning jamiyatdagi o'rni va ularning axloqiy-estetik qarashlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Hududlarda tashkil etilayotgan "Oila maktablari", "Yoshlar markazlari" orqali esa tarbiyaviy-ma'naviy ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Zero, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasida yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish”¹ muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 29-martdagi PF-6097-son “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishi doirasida bajariladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Antik davr faylasuf-olimlarining fikr va qarashlari bu muammoning ildizlari va taraqqiyotini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Misol uchun Platon, Aristotel, Seneka, Suqrot² kabi faylasuflar shular jumlasidandir. Platon oila va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi haqida o‘z asarlarida chuqur mulohaza yuritgan, Aristotel esa insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi o‘rni va oila institutining jamiyatdagi vazifalarini batafsil tahlil qilgan. Shuningdek, Seneka va Suqrot kabi faylasuflarning axloq, shaxsiy mas‘uliyat va ijtimoiy qadriyatlar haqidagi qarashlari ham mazkur tadqiqot uchun nazariy asos yaratadi.

Yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an‘analarni transformatsiyasi masalasi Sharq Uyg‘onishining buyuk mutafakkirlari asarlarida ham allaqachon falsafiy-axloqiy jihatdan talqin etilgan. Xususan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Abu Homid al-G‘azzoliy³ kabi mutafakkirlar buning yorqin misolidir. Abu Nasr Forobiy jamiyatning paydo bo‘lishini “inson tabiatdan

¹ Мирзиёев Шавкат Миромонович. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. 6-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2023. -Б.528. (536)

² Платон. Государство / Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н Трубетский проект, 2015. – 398 с.; Аристотель. Политика. – Москва: Издательство АТС, 2022. – С. 384.; Луций Анней Сенека. Нравственные письма к Луцилию. Перевод и примечания С.А.Ошерова. Москва: Наука, 1977. 80 с.; Суриков, И. Е. Сократ. – Москва: Молодая гвардия, 2011. – 384 с.

³ Abu Nasr al-Farabiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 24-25-betlar.; Abu Ali Ibn Sino. Kitob ush-Shifo. “Ilmiy meros” seriyasi. Toshkent: “Fan”, 2001. – 112-114-betlar.; Abu Rayhon al-Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tarj. Q. Devanasov. Toshkent: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1998. – 56-58-betlar.; Abu Homid al-G‘azzoliy. Kimyo-i saodat (O‘zbekcha tarjima). Toshkent: Sharq, 2012. – 89-93-betlar.

kelib chiqib, kamolotga erishish uchun boshqalarga muhtoj” ekani bilan izohlaydi. Bu fikrlar oilani ham, keng ma’noda jamiyatni ham o‘zaro maqsadli hamkorlik negizida ko‘ruvchi hozirgi nazariyalar uchun metodologik poydevor yaratadi. Ibn Sino “Kitob ush-Shifo”ning metafizik va ijtimoiy-siyosiy boblarida tarbiya va bilimni shaxsni barkamol qiladi, deya ta’kidlash bilan birga, davlat adolatni ta’minlamasa, oila va jamiyatda ezgulik qaror topmasligini uqtiradi. Abu Rayhon Beruniy turli xalqlarning taqvim, marosim va oila odatlarini qiyosiy tahlil qilib, madaniy ko‘pshakllikni ijobiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi; bu, bugungi global transformatsiyalarni madaniy dialog ruhida talqin etish zaruratiga ishora qiladi. Imom Abu Homid al-G‘azzoliy inson vujudini “kichik davlat”, qalbni esa “podsho”ga qiyoslab, aql va ruh uyg‘unligini oilaviy tarbiya orqali shakllantirishni asosiy maqsad deb biladi.

Oila va yoshlarga oid ijtimoiy-madaniy an’analar transformatsiyasi muammosi bugungi kunda nafaqat milliy, balki global miqyosda ham ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborida. G‘arb sotsiologiyasi va falsafasida bu jarayon postindustrial jamiyatda shaxsiy hayotning “plastiklashuvi” bilan izohlanadi. Bunday faylasuf va sotsiologlar qatoriga A. Giddens, U. Bek, Z. Bauman, P. Bourdieu, Y. Habermas, M. Fuko⁴ kabi olimlarni kiritsak bo’ladi.

Ingliz sotsiologi A. Giddens oila endi rasmiy me’yorlarga emas, balki sheriklarning o‘zaro reflektiv kelishuviga tayanayotganini ko‘rsatadi. Nemis faylasufi U. Bek risklashgan va individuallashtirgan zamonaviylikda avvalo “oila – xavf ishlab chiqaruvchi” struktura emas, balki xavfni shaxsiy biografiya darajasida boshqarishga majbur bo‘lgan agentlar maydoniga aylanishini tasvirlaydi. Z. Bauman esa “suyuq modernlik” da har qanday mustahkam ijtimoiy rishtalar, jumladan nikoh va qarindoshlik, “bir daqiqalik” resursga aylanib, an’analarni doimiy qayta muzokara qilishga majbur qilayotganini ta’kidlaydi. P. Bourdieu oilani madaniy kapitalni uzluksiz qayta ishlab chiqaradigan “habitus” makoni sifatida tahlil qiladi va yangi iqtisodiy-madaniy kontekstda bu reproduktiv mexanizmlarning uzilishi qanday simvolik ziddiyatlarga olib kelishini ochib beradi. Y. Habermas nazarida esa bozor va davlat tizimlarining “hayot dunyosi”ni koloniyalashuvi oiladagi kommunikativ ratsionallikni zaiflashtirib, normativ integratsiyani qayta qurishni talab etadi. M. Fuko shaxs tanasi va jinsiyligi ustidan hokimiyat ishlashining tarixiy dinamikasini ko‘rsatib, zamonaviy oilani biopolitik regulatsiyaning markaziy nuqtasi sifatida talqin qiladi.

Mavzu rus falsafa-sotsiologiya maktabida turli davrlarda keng muhokama qilingan bo‘lib, mazkur masalaning nazariy asoslari, axloqiy-estetik hamda sotsial psixologik jihatlari yuzasidan bir qator olimlar chuqur tahlil olib borganlar. Jumladan, N.A. Berdyaev, V.V. Rozanov, P.A. Sorokin, V.A. Lukov,

⁴ Anthony Giddens. *The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies*. Cambridge: Polity Press, 2002. – P. 14–16.; Ulrich Beck. *Risk Society: Towards a New Modernity*. London: SAGE Publications, 1992. – P. 97–103.; Zygmunt Bauman. *Liquid Modernity*. Cambridge: Polity Press, 2000. – P. 3–6.; Pierre Bourdieu. *Outline of a Theory of Practice*. Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 82–84.; Jürgen Habermas. *The Theory of Communicative Action. Volume 1: Reason and the Rationalization of Society*. Boston: Beacon Press, 2004. – P. 181–183.; Michel Foucault. *The History of Sexuality. Volume 1: An Introduction*. New York: Pantheon Books, 1998. – P. 95–99.

A.G. Asmolov, S.N. Ikonnikova⁵ kabi olimlar shular jumlasidandir. N.A. Berdyayev oila va jamiyat o'rtasidagi "erkinlik – an'ana" dialektikasini sharhlab, shaxsiy izzat-nafs va milliy-madaniy meros o'rtasidagi bog'lanishni asoslab bergan. V.V. Rozanov an'anaviy oila modelining pravoslav axloqiy poydevorini ta'riflab, uning ijtimoiy barqarorlikdagi rolga urg'u bergan. P.A. Sorokin madaniy tizimlarning aylanishi va "ijtimoiy-madaniy dinamika" nazariyasi orqali avlodlararo qadriyatlar o'zgarishini konseptual darajada ko'rsatib bergan. V.A. Lukov yoshlarni alohida sotsiokultural guruh sifatida tahlil qilib, ular an'anani qayta talqin qilishda "innovatsion ko'prik" vazifasini o'tashini isbotlagan. A.G. Asmolov identitet konstruksiyasi jarayonida oilaning psixologik resurslarini ochib berib, "o'zgarishlar madaniyati" sharoitida yoshlarning moslashuv mexanizmlarini yoritgan. S.N. Ikonnikova yoshlar sotsializatsiyasi jarayonida oilaning normativ-axloqiy nazorat funksiyasini zamonaviy sharoitda qayta ko'rib chiqib, "konfliktli modernizatsiya" hodisasini tahlil etgan.

O'zbekistonda yoshlar va oila munosabatlaridagi ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasi haqida ilk falsafiy umumlashmalar XX asr boshidayoq A. Fitrat tomonidan boshlangan. U "Oila va oila boshqarish tartiblari» asarida millat salohiyatini "oilalar intizomi" bilan bog'lab, oilaviy beqarorlikni butun jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida ko'rsatadi". Fitratning bu fikri mavzu bo'yicha konseptual nuqta bo'lib, keyingi tadqiqotlarning metodologik yo'nalishini belgiladi. Mustaqillik davrida ruhiy-ma'naviy qadriyatlar va xususan tasavvufiy axloqni oilaviy hayot me'yorlari bilan uyg'un tahlil etgan N. Komilov yoshlarga xos "nafs tarbiyasi"ni oila iqlimida shakllanuvchi jarayon deya ta'riflaydi. Komilovning qarashlari oila instituti ichki axloqiy mexanizmlarini falsafiy darajada tadqiq etishga yo'l ochdi. 2020-yillarda falsafa va sotsiologiya kesishmasida olib borilgan tadqiqotlar mavzuni yangi empiriyaga boyitdi. O.E. Eshmurodov tomonidan tayyorlangan ishlarda milliy qadriyatlarning oilaviy muloqot va rolda qat'iy o'rin egallashi, ayniqsa ko'p avlodli oilalarda yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'siri batafsil yoritildi. Markaziy Osiyo mintaqaviy merosini ijtimoiy-falsafiy rakursdan ko'rib chiqqan D. Pulatova va hamkorlari zamonaviy urbanizatsiya sharoitida an'anaviy va modern oilaviy modellar kolliziyasini falsafa tarixi kontekstida tadqiq etib, "madaniy uzviylik" konsepsiyasini taklif etishdi. Yoshlar bo'sh vaqtini milliy o'yinlar yordamida mazmundor qilishni falsafiy-pedagogik muammo sifatida ko'targan X. Ismoilova "mahalla-oila-bolalar" uchburchagini aforosentrlik modelida talqin qilib, yosh avlodda jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirish zarur ekanini isbotladi⁶.

⁵ Бердяев Н. А. Смысл истории. – М.: АСТ, 2019. – 368 с. – С. 153–154.; Розанов В. В. Семейный вопрос в России. – М.: Наука, 2015. – 432 с. – С. 78–79.; Сорокин П. А. Социальная и культурная динамика. – М.: Мысль, 2018. – 640 с. – С. 121–123.; Луков В. А. Социология молодежи: учеб. пособие. – М.: Академический проект, 2018. – 304 с. – С. 45–47.; Асмолов А. Г. Психология личности: культура перемен. – М.: Смысл, 2017. – 512 с. – С. 219–221.; Иконников С. Н. Молодёжь и общество: социокультурные аспекты. – М.: Педагогика, 2019. – 286 с. – С. 95–97.

⁶ А. Fitrat. Oila va oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996. – 8-bet.; N. Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: "Movarounnahr", 2009. – 17-bet.; O.E. Eshmurodov. "Oilaviy munosabatlar barqarorlashuvida milliy qadriyatlarning ahamiyati". – Pedagogik mahorat, 2023. – 220-221-betlar. D. Pulatova, G. Ruzmatova, A. Muxamedov. Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi. – Toshkent: "Fan va ta'lim", 2025. – 9-bet.; X.T. Ismoilova. "Mahallada xalq milliy o'yinlari qadriyatlarimiz timsoli". Zamonaviy oilada, farzand

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitet ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yoshlar va oila munosabatlarida yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek jamiyatida oila va yoshlar munosabatlarining tarixiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish, an'anaviy qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini aniqlash;

yoshlar va oila munosabatlarida yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari, ularning sabab va omillarini aniqlash orqali jamiyat hayotiga ta'sirini ochib berish;

an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkoniyatlarini falsafiy jihatdan asoslash va yoshlar ongida aksiologik orientatsiyaga asoslangan munosabatni shakllantirish;

jamiyatda oilaviy identiklik va yoshlar mentaliteti o'rtasidagi dialektik munosabatlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi orqali rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy o'zbek jamiyatida yoshlar va oila munosabatlarda yuz berayotgan an'anaviy qadriyatlar transformatsiya jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlar va oila munosabatlariga ta'sir etuvi ijtimoiy-madaniy omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, qiyosiy tahlil, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik kabi tadqiqot usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

globallashuv davrida oila va yoshlar munosabatlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari dinamik tabiatga ega madaniy institutlar (urf-odat, marosim, an'analar) faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarib, an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy ongda qayta konstruksiyalanishga yordam berishi falsafiy asoslangan;

yoshlar ongida aksiologik orientatsiyaga asoslangan munosabatni takomillashtirish, oila institutini mustahkamlashi orqali ma'naviy barqarorlikni ta'minlab, jamiyatda "ontologik uzilish" va "aksiologik ziddiyat" larni oldini oliishi isbotlangan;

jamiyatda oilaviy identiklik va yoshlar mentaliteti o'rtasidagi dialektik munosabatlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi orqali rivojlantirish,

tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish konf. mat. – Toshkent, 2022. – 157-160-betlar.; F.G'. Bozorova. Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi (Abu Homid G'azzoliy va Immanuel Kant falsafiy ta'limotlari misolida). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 81 b.; Kurbonova G.S. O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlari rivojlanish tarixi. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 53 b.

yoshlar va oila munosabatlari paradigmasida avlodlararo qadriyatlar kolliziyasini oldini olib, jamiyatda ijtimoiy uzviylikni saqlashning “aksiologik adaptatsiya” va “intergeneratsion tranzit” (avlodlararo qadriyatlar uzatilishi) kabi mexanizmlari aniqlangan;

zamonaviy o‘zbek jamiyatida an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektik aloqadorligini ta’minlash, ijtimoiy ongda “aksiologik integratsiya” jarayonini rivolantirib, yoshlarda an’anaviy qadriyatlardan axloqiy tayanch, zamonaviy qadriyatlardan esa erkin tafakkur va ijodiylik tamoyillarini uyg‘unlashishiga olib kelishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oila va yoshlar munosabatlarida ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlarini inobatga olgan holda milliy qadriyatlarga asoslangan barqaror oila modeli asoslandi;

zamonaviy yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan;

global axborotlashish sharoitida oila va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlar birligini ta’minlovchi yondashuvlar asosida an’anaviy qadriyatlarni o‘zarishiga olib kelishi dalillangan

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalar hamda retsenziyalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oila va yoshlar munosabatlarida kechayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlarini falsafiy tahlil asosida chuqur anglash imkonini berib, ularning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash orqali milliy qadriyatlar evolyutsiyasining ilmiy manzarasini yaratdi. Shu orqali tadqiqot o‘zbek jamiyatining an’anaviy madaniy tizimida sodir bo‘layotgan ontologik va aksiologik o‘zgarishlarni falsafiy tushunchalar doirasida talqin etishga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, oilaviy identitet, qadriyatlar transformatsiyasi, yoshlar mentaliteti kabi kategoriyalarni tahlil qilish orqali milliy falsafaning zamonaviy davrdagi dolzarb yo‘nalishlarini boyitadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar va nazariy xulosalar falsafa, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlarda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlar tarbiyasi, oila mustahkamligi va mahalla tizimidagi ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan dastur va tavsiyalarni shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda, oila va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda, shuningdek, raqamli madaniyat sharoitida qadriyatlar uzviylikni saqlab qolishga qaratilgan amaliy faoliyatlarda tadqiqot xulosalari va takliflaridan keng foydalanish imkoniyati mavjud. Shu bois tadqiqot nafaqat ilmiy-

nazariy, balki ijtimoiy-pedagogik va madaniy-ma'naviy amaliyot uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasi asosida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

globallashuv davrida oila va yoshlar munosabatlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari dinamik tabiatga ega madaniy institutlar (urf-odat, marosim, an'analar) faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarishga doir taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining bir qator dasturlari ("Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Dugonalar" dasturlarida 2025-yil yanvar-iyun oylaridagi sonlari) da ssenariylar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 26-iyundagi 05-09-1023-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va ilmiy xulosalar O'zbekistonda yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasini ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

yoshlar ongida aksiologik orientatsiyaga asoslangan munosabatni takomillashtirish, oila institutini mustahkamlashi orqali ma'naviy barqarorlikni ta'minlab, jamiyatda "ontologik uzilish" va "aksiologik ziddiyat" larni oldini oliishiga oid xulosa va takliflaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamlı islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va "Strategiya-2030" davlat dasturining targ'ibotiga doir chora-tadbirlari" 16-bandi "Yoshlarni umummilliy g'oyalar ostida birlashtirish, targ'ibot ishlarini kreativ usullarda amalga oshirish, ijtimoiy faol, huquqiy-siyosiy, iqtisodiy savodxon yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish maqsadida Markaz huzurida "Yangi kuch" – yosh ma'rifatparvarlar harakati klubini tashkil qilish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 4-iyuldagi 10/410-son dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasini yaxshilashga xizmat qilgan;

jamiyatda oilaviy identiklik va yoshlar mentaliteti o'rtasidagi dialektik munosabatlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi orqali rivojlantirish, yoshlar va oila munosabatlari paradigmasida avlodlararo qadriyatlar kolliziyasini oldini olib, jamiyatda ijtimoiy uzviylikni saqlashning "aksiologik adaptatsiya" va "intergeneratsion tranzit" (avlodlararo qadriyatlar uzatilishi) kabi mexanizmlari ochib berishga doir xulosa va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston"

teleradiokanalining bir qator dasturlari ("Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Dugonalar" dasturlarida 2025-yil yanvar-iyun oylaridagi sonlari) da ssenariylar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 26-iyundagi 05-09-1023-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va ilmiy xulosalar O'zbekistonda yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasini ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

zamonaviy o'zbek jamiyatida an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektik aloqadorligini ta'minlash, ijtimoiy ongda "aksiologik integratsiya" jarayonini rivojlantirib, yoshlarda an'anaviy qadriyatlardan axloqiy tayanch, zamonaviy qadriyatlardan esa erkin tafakkur va ijodiylik tamoyillarini uyg'unlashishiga olib kelishiga doir taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va "Strategiya-2030" davlat dasturining targ'ibotiga doir chora-tadbirlari" 16-bandi "Yoshlarni umummilliy g'oyalar ostida birlashtirish, targ'ibot ishlarini kreativ usullarda amalga oshirish, ijtimoiy faol, huquqiy-siyosiy, iqtisodiy savodxon yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish maqsadida Markaz huzurida "Yangi kuch" – yosh ma'rifatparvarlar harakati klubini tashkil qilish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 4-iyuldagi 10/410-son dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar yoshlar va oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy an'analar transformatsiyasini yaxshilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy qismi 122 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan

va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekt, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek jamiyatida oila va yoshlar munosabatlarining ijtimoiy-falsafiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o‘zbek jamiyatining tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tuzilmasi kontekstida oila va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning falsafiy mohiyati ochib berilgan. Yoshlar va oila munosabatlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va ma‘naviy yangilanishining eng dolzarb masalalaridan biridir. Har qanday jamiyatda yoshlar va oila institutining barqarorligi, ularning o‘zaro dialektik munosabatlari va bu munosabatlarning aksiologik, ontologik hamda sotsiomadaniyatni mazmuni jamiyat barqarorligi, taraqqiyoti va milliy identitetining asosi sifatida qaraladi. Birinchi bob doirasida yoshlar va oila institutining falsafiy kategoriyalar sifatidagi mohiyati, oila munosabatlarida ijtimoiy-madaniy paradigmalarning dialektik harakati hamda yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarining shakllanishiga ta‘sir etuvchi asosiy falsafiy omillar chuqur va tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Inson tafakkurining rivoji va ijtimoiy-madaniy tizimlarning murakkablashuvi bilan “yoshlik” va “oila” tushunchalari falsafiy kategoriyalar sifatida talqin qilinishga loyiqdir. Ular inson mavjudligining ontologik asoslariga, bilish jarayonlarining epistemologik shart-sharoitlariga va qadriyatlar dunyosining (aksiologiya) shakllanishiga bevosita taalluqlidir. Aristotel oilani “tabiatan mavjud bo‘lgan” jamiyatning asosiy birligi sifatida ko‘rib, u insonning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur deb hisoblagan. Uning fikricha, “Uy xo‘jaligi va oila... hamma jamiyatning boshlang‘ich nuqtasidir”⁷. O‘rta asrlar sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ham oilani inson tabiatining tabiiy davomi sifatida ko‘rib, unda erkak va ayolning o‘zaro to‘ldiruvchi roli va bolalarning tarbiyalanishini alohida ta‘kidlagan⁸. Bu nuqtai nazar oilaning biologik asosini va ijtimoiy barqarorlikdagi rolini ta‘kidlaydi, lekin uning tarixiy o‘zgaruvchanligi va madaniy nisbiyligini kam baholaydi.

Rus diniy falsafasining namoyandalari V. Solovyev uchun oila “erkak va ayol ideal birligi”ning, ya‘ni “sof insoniyat”ning namunasi, bu birlik Xudo va inson, shuningdek, inson va tabiat o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etadi⁹. P. Florenskiy esa oilani “ko‘p asrlik muqaddaslik” deb ta‘riflab, uning ma‘naviy-asketik jihatlarini, shaxslarning o‘zaro o‘tishi orqali kamol topishidagi rolini urg‘ulaydi¹⁰. Bu yondashuv oilaning aksiologik jihatini chuqurlashtiradi, lekin uning ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishining moddiy omillarini e‘tiborsiz qoldirishi mumkin. Ma‘rifat davri va marksistik fikr oilani asosan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit mahsuli sifatida ko‘radi. J.J. Russo “Ijtimoiy shartnoma” asarida oilaviy mulkning paydo bo‘lishi bilan shaxsiy mulkchilik va ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi

⁷ Аристотель. Политика. – Москва: Издательство АТС, 2022. – С. 384.

⁸ Ibn Sino. Tarbiya haqida risola. – Toshkent.: Fan, 1998. – B. 47

⁹ Соловьев В.С. Нравственная философия. Соч. в 2 т. Т. 1. – М.: Мысль, 1998. – С. 230

¹⁰ Флоренский П.А. Столп и утверждение Истины. – М.: Правда, 1999. – С. 511

o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi¹¹. Ushbu yondashuv oilaning faqat ma‘naviy, axloqiy yoki diniy emas, balki iqtisodiy va sotsial omillar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, biz bu fikrga qo‘shilmaydigan jihatlarimiz ham bor. Chunki oila insoniyat tarixida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit mahsuli, balki chuqur ma‘naviy, axloqiy, psixologik va antropologik asoslarga ega universal institutdir. Oila – sotsial-iqtisodiy taraqqiyotga moslashuvchi, lekin uning mohiyati faqat iqtisodiy munosabatlar bilan chegaralanmaydi. Oila doirasidagi sevgi, mehr-oqibat, fidoyilik, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy kamolot inson tabiatining va jamiyat taraqqiyotining o‘zgarmas manbai bo‘lib qoladi. Shu sababli, iqtisodiy omillar oilaning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, biroq uning tub mohiyati va jamiyatdagi roli bundan ham kengroq va ko‘p qirrali.

Yoshlar va oila institutining jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatini aniqlovchi omillarni bir necha asosiy yo‘nalishda umumlashtirish mumkin: birinchidan, demografik va biologik omillar. Jamiyat hayotida oila orqali yangi avlod dunyoga kelishi, farzandlar tarbiyasi va ularning hayotga moslashtirilishi, jamiyat aholisining barqarorligi, millat genofondining saqlanishi hamda yoshlar orqali avlodlar almashinuvi sodir bo‘ladi. Oila va yoshlar instituti jamiyatning demografik siyosati va strategiyasida asosiy o‘ringa ega; ikkinchidan, axloqiy-ma‘naviy omillar. Oila axloqiy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini, mehr-oqibat, insonparvarlik, hamjihatlik, adolat va hurmat kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, oilada ma‘naviy muhit qanchalik sog‘lom va barqaror bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik sog‘lom va taraqqiyotga yo‘naltirilgan bo‘ladi¹²; uchinchidan, iqtisodiy omillar. Oila va yoshlar instituti iqtisodiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotining ham muhim asosi sanaladi. Yoshlar esa mehnat bozorida yangi kuch, innovatsion resurs va intellektual salohiyat sifatida iqtisodiy o‘sish va modernizatsiyaning poydevorini yaratadi; to‘rtinchidan, ijtimoiy-madaniy va identifikatsion omillar. Oila orqali jamiyat a‘zolari an‘ana, urf-odat va marosimlarni, milliy ramz va timsollarni, madaniy kodlarni, til va nutqni, hayotiy motivatsiya va mafkurani o‘zlashtiradi; beshinchidan, innovatsion va taraqqiyot omillari. Yoshlarning ijodiy salohiyati, innovatsion tafakkuri, yangi g‘oya va texnologiyalarni hayotga tatbiq etish qobiliyati jamiyatning modernizatsiyasi va zamonaviy rivojlanishini belgilovchi asosiy kuchdir; oltinchidan, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omili sifatida. Oila va yoshlar jamiyatda ijtimoiy muvozanat va barqarorlikni, insonlar o‘rtasidagi sotsial aloqalar va hamkorlikni, fuqarolik jamiyati va davlat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar va oila institutining jamiyat hayotidagi muhim ahamiyati - biologik davomiylik, axloqiy-ma‘naviy va madaniy qadriyatlarni saqlash, ijtimoiy-madaniy identifikatsiya, iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion salohiyat, sotsial barqarorlik va jamiyatning kelajak istiqbolini belgilashda namoyon bo‘ladi.

¹¹ Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты. – М.: КАНОН-пресс, 2008. – С. 72

¹² Varayev S. Yoshlarda ma‘naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 12. – С. 720-725.

Global axborot maydoni, raqamli madaniyat, individualizm va iste'molchilik tamoyillari yoshlar ongida oila, majburiyat, muqaddaslik tushunchalarini qayta talqin qilishiga olib kelmoqda. Bu holat avlodlararo qadriyatlar kolliziyasini yuzaga keltiradi. Bobda bu jarayonlar "ontologik uzilish" va "aksiologik ziddiyat" kategoriyalari orqali tahlil qilinadi. Bunday yondashuv yoshlarning oila institutiga bo'lgan munosabatini chuqurroq anglash imkonini beradi va jamiyatda ijtimoiy uzviylikni saqlash mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

An'anaviy va innovatsion paradigmalarda o'rtasidagi dialektika oilaning doimiy harakatda va o'zgarishda ekanligini namoyon etadi. Dialektik yondashuvga ko'ra, an'anaviy va innovatsion yo'nalishlar bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o'zaro murakkab munosabatda, sintez va inkor orqali yangi sifat bosqichiga o'tuvchi ikki pol sifatida amal qiladi. Bu holatda har bir paradigma muayyan tarixiy bosqichda ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning dialektik mujassamlanishi oilaning barqarorligi va rivoji uchun zarur omil sifatida ko'riladi. Masalan, o'zbek oilasida an'anaviy qadriyatlar asosida shakllangan o'zaro hurmat, mehr-oqibat, keksalarga ehtirom, farzandlarga mas'uliyat va qat'iyatlilik innovatsion paradigma talablari bilan uzviy uyg'unlashib, yangi tipdagi oilaviy qadriyatlarni shakllantirmoqda.

Oila qadriyatlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar turlicha: tarixiy, milliy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy globallashtiruv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, dunyoqarashlar xilma-xilligi, yangi turmush tarzi va innovatsion g'oyalar ham yoshlar ongiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi global jamiyatda yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi falsafiy omillar doirasini yanada kengaytiradigan omillardan biri – postan'anaviylik va postmodernizm ta'siridir. Postan'anaviy jamiyatda qadriyatlarning shakllanishi avvalgidek qat'iy ierarxiyaga emas, balki ko'pyoqlamalilik, pluralizm va individual tanlov asosida rivojlanmoqda. Postmodernizm qadriyatlarning mutlaq emasligini, har bir jamiyat va individ o'z sharoiti va hayotiy tajribasidan kelib chiqib qadriyatlarni qayta yaratishini e'tirof etadi. Yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarning shakllanishi ham aynan ushbu oqimlarning ta'sirida individual yondashuv, avtonomiya, "oila" tushunchasining zamonaviy talqinlari, gender munosabatlari va oilaviy rollarning qayta baholanishi kabi jihatlar bilan boyimoqda. Bu esa oilaviy qadriyatlar avvalgi an'anaviy shakldan chiqib, yangi shakl va mazmunga ega bo'lishini anglatadi.

Dissertatsiyaning "**Oila va yoshlar munosabatlarida an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar**" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar fonida oila va yoshlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida yuzaga kelayotgan an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar chuqur falsafiy tahlil qilinadi. Bobning asosiy maqsadi – qadriyatlar transformatsiyasi jarayonining mohiyatini ochib berish, bu ziddiyatlarning yoshlar ongidagi ifodasini aniqlash va uning jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikka ta'sirini falsafiy kategoriyalar asosida asoslab berishdan iborat. Qadriyatlar ziddiyatlari fenomeni jamiyatda ro'y berayotgan modernizatsiya,

urbanizatsiya va raqamli madaniyat ta'sirida chuqurlashib borayotgan murakkab, ko'p qatlamli jarayon sifatida talqin qilinadi.

Bobda qadriyatlar tushunchasi falsafiy va aksiologik nuqtai nazardan sharhlanadi. An'anaviy qadriyatlar - xususan, ota-onaga hurmat, oilaviy mas'uliyat, kattalarga itoat, jamoviylilik, sabr-toqat, e'tiqod va ijtimoiy intizom - O'zbek jamiyatining tarixiy shakllangan axloqiy tayanchi sifatida baholanadi. Boshqa tomondan, zamonaviy qadriyatlar - shaxsiy erkinlik, avtonomiya, o'zini ifoda qilish, tanlov huquqi, gender tengligi va individual muvaffaqiyat - global madaniyat, texnologik taraqqiyot va axborot oqimlari orqali yoshlar ongiga kirib kelmoqda. Shu bois bobda qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar "aksiologik kolliziya", "madaniy uzilish", "identitet inqirozi" kabi tushunchalar ochib berilgan.

Hozirgi zamon ijtimoiy-falsafiy tafakkurida insoniyat taraqqiyotining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlari chuqur o'rganilmoqda. Bu jarayonlar bir vaqtning o'zida jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan, eng muhim ijtimoiy institut – oila tizimiga ham bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Oila jamiyatning eng qadimgi va tabiiy instituti sifatida insoniyat tarixining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan bo'lsa-da, bugungi globallasuv va modernizatsiya jarayonlari ostida oila tushunchasi va uning an'anaviy qadriyatlari yangi shakl va mazmunga ega bo'lib bormoqda. Ana shu sababli, globalizatsiya va modernizatsiyaning oila an'alariga ta'siri zamonaviy falsafiy va pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Globalizatsiya asosan dunyoning turli hududlari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot almashinuvi jarayonlarining tezlashuvi, chegaralarning nisbiy ravishda ochiqligi, umumiy axloqiy va madaniy qadriyatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Modernizatsiya esa jamiyatlarning, ayniqsa, ijtimoiy institutlarning yangilanishi, texnologik taraqqiyot, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etilishi va an'anaviy hayot tartibining o'zgarishi jarayonini anglatadi. Oila esa ana shu jarayonlarning diqqat markazida turadi. Chunki oila – bu nafaqat biologik, balki sotsiologik va madaniy-huquqiy institut sifatida, insonning jamiyatdagi o'rnini aniqlash, shaxsni sotsiallashtirish, qadriyatlarni uzluksiz avloddan-avlodga yetkazish vazifasini bajaradi.

Yosh avlodning dunyoqarashi so'nggi o'n yilliklarda keskin yangilanib, oila haqidagi tasavvurlarni ham tubdan o'zgartirdi; bu jarayonni falsafiy tilda ifodalaganda biz "paradigma almashinuvi" — ya'ni qadriyatlar va me'yorlarning bir-biri bilan dialektik kurashda sintezga kirish jarayoni sifatida ko'ramiz. Avvalo, G'arb nazariyalarida shakllangan "sof munosabat" konsepsiyasi (oilalarning tuzilmasi individual qoniqish va o'zaro kelishuvga tayangan holda saqlanadi) yoshlarning global madaniy ta'sirlar ostida aksariyat hollarda mustaqil tanlovga intilayotganini ko'rsatadi¹³. Giddensning fikricha, hurfikr va erkin tanlovga asoslangan bunday munosabat modeli an'anaviy patriarxal ierarxiyani yemiradi, biroq u bozor

¹³ Giddens A. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. – Stanford (CA): Stanford University Press, 1992. – P. 66.

munosabatlari va ijtimoiy himoya tizimiga mos keladigan “institutsional tayanch” taklif etmaydi; aynan shu jihati bois bu nazariya O‘zbekiston sharoitida to‘liq universal yechim bo‘la olmaydi. U. Bek va E. Bek-Gernsheim esa “individuallashtirilgan jamiyat” nazariyasida yangi oilaviy struktura jamiyatda erkin subyektlilik va ijtimoiy mas’uliyatni bir vaqtda talab etishini ta’kidlaydi¹⁴. Ularning qarashlari iqtisodiy va huquqiy omillarni ham qamrab olgani sababli, yoshlar mas’uliyatini rejalashtirish va gender tengligini muvozanatlashtirish nuqtai nazaridan ancha pragmatik ko‘rinadi.

Mahalliy falsafiy muhitga nazar tashlasak, U. Karimov ma’naviy immunitet tushunchasini ilgari surib, oilani axloqiy-emosional barqarorlikni mustahkamlaydigan “ichki ma’naviy maydon” sifatida talqin qiladi¹⁵. Karimovning fikricha, milliy va diniy qadriyatlarni institutsional mexanizmlar bilan birga muhofaza etish yoshlarda “ichki tayanch nuqtasi”ni kuchaytiradi. Bu nuqtada biz uning paradigmasini qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki global raqamli madaniyatda shaxsiy identitet ravshan bo‘lmasa, oilaviy ma’naviy yadro yengil yemiriladi. G. Otajonov esa o‘z tadqiqotida zamonaviy o‘zbek falsafasini “tarixiy izchillik va innovatsiya” dialektikasi orqali tahlil qilib, yoshlarning intellektual erkinligi bilan milliy istiqloq g‘oyasi uyg‘unlashishi zarurligini asoslaydi¹⁶. Otajonovning tarixiy-falsafiy asoslangan bu qarashini ham qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki u yosh avlodning global tarmoqlarda erkin fikrlashini milliy qadriyatlar bilan bog‘lovchi nazariy ko‘priklarni yaratadi.

O‘zbekiston jamiyatida so‘nggi o‘n yilliklar davomida yoshlarning dunyoqarashi va qadriyat tizimi sezilarli darajada o‘zgardi. Bu o‘zgarishlarning tub sabablari orasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, iqtisodiy islohotlar va ochiq bozor munosabatlariga o‘tish, ikkinchidan, yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning kirib kelishi, uchinchidan, ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi, to‘rtinchidan, gender va inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan siyosat, beshinchidan, migratsion jarayonlarning kuchayishi. Bularning barchasi yosh avlod dunyoqarashining innovatsion xususiyatlari, ijtimoiy moslashuvchanlik, ochiqlik, pluralizm, individualizm va mas’uliyatlilik kabi tendensiyalarni kuchaytirdi. Bu o‘zgarishlarni tahlil qilgan bir qator zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Y. Xadjiyev, G. To‘xtaboyeva, shuningdek, xorijiy mualliflar – Z. Bauman, U. Bek, A. Giddens asarlarida yoshlarning dunyoqarashi va oilaviy qadriyatlarining o‘zgarishi global sotsial va madaniy omillar ta’sirida sodir bo‘layotgani qayd etilgan.

An’analar va zamonaviylik uyg‘unligi masalasi aynan O‘zbekiston oilalari misolida tahlil etilganda, o‘ziga xos dialektik ziddiyatlar va sintez jarayonlarini ko‘rish mumkin. Mustaqillikdan keyingi yillarda O‘zbekiston jamiyatida sotsial-iqtisodiy islohotlar, ta’lim va madaniyat sohasida modernizatsiya, gender

¹⁴ Beck U. Individualization: Institutionalized Individualism and Its Social and Political Consequences. – London: SAGE, 2002. – P. 22.

¹⁵ Karimov U. “The Role and Significance of Spiritual Values in Youth Education”. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – Fergana: Asian Research Consortium, Vol. 12, Issue 2, 2022. – P. 181–183.

¹⁶ Otajonov G. “The Formation of the Philosophy of Uzbekistan, Uzbek Philosophers of the XXI Century and Their Scientific Heritage”. JournalNX, Kokand: Novateur Publication LLP, Vol. 8, Issue 12, 2022. – P. 87–88.

siyosatida yangilanish, xalqaro me'yorlarning joriy qilinishi natijasida oilada zamonaviy qadriyatlar bilan birga, chuqur ildiz otgan an'anaviy munosabatlar ham mustahkam saqlanib qolmoqda. Xususan, oilada avlodlararo munosabat, ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasida kollektiv mas'uliyat, to'y-marosim va urf-odatlar, diniy qadriyatlar va mahalliy mentalitet barqarorligicha qolmoqda. Biroq, yangi avlod – zamonaviy ta'lim olgan, dunyoqarashi kengaygan, texnologiyalardan faol foydalanadigan yoshlar uchun individual mustaqillik, erkin tanlov, gender tengligi, ochiq kommunikatsiya, zamonaviy oilaviy rollar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi falsafiy omillarni chuqur o'rganish esa, bu jarayonning ko'p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Falsafiy yondashuvda tarixiy xotira, madaniy arxetiplar, zamonaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim tizimi va global kommunikatsiyalarning har biri yosh avlod tafakkuri va hayotiy strategiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarning oilaviy qadriyatlarni idrok etishi va ichki ongida qayta qurishi jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib, ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy uyg'unlik va maqsadli rivojlanish uchun muhim resursga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar va oila institutining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, oilaviy munosabatlardagi paradigmalarda dialektikasi hamda yoshlar ongida qadriyatlarning shakllanish jarayoni O'zbekiston jamiyatida barqarorlik va taraqqiyotning, modernizatsiya va milliy identitet uyg'unligining asosiy tamoyilini shakllantirmoqda.

